Egamberdieva Turg‘unoy Axmadjonovna
Farg‘ona davlat universiteti professori,
Pedagogika fanlari doktori,
FarDU qoshidagi Gender tengligi tadqiqotlar markazi rahbari,
nodira0505@mail.ru, +998913255742
Gafurova Nodira Ravshanovna
Farg‘ona davlat universiteti,
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
FarDU qoshidagi Gender tengligi tadqiqotlar markazi ekspert tarjimoni,
nodira0505@mail.ru, +998939702131

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING TOLERANTLIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING MUAMMOLARI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.7901717

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Tarbiya” fani asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tolerantlik ko‘nikmalarini rivojlantiri texnologiyasining muammolari o‘ranilib chiqilgan. Tarbiya metodlarini va tamoyillari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar tafakkuri, ta’lim tizimi, bilim, tajriba va ko‘nikma, ijtimoiy tajriba va qadriyat, tolerant muhit, tolerantlik madaniyati, tolerantlik me’yorlari.

KIRISH

Dunyoda uchinchi ming yillikda ijtimoiy munosabatlarning keskinlashuvi, milliy va etnik nizolarning kuchayishi, diniy qarama-qarshiliklarning kengayib borishi va boshqa toqatsizlik bilan bog‘liq ziddiyatlar jamiyatlarda, insonlarda tolerantlik tafakkuri va ko‘nikmalarini rivojlantirishni zaruratga aylantirmoqda. Mazkur masalalarni bartaraf etishning muhim bo‘g‘ini ta’lim-tarbiya jarayoni, xususan, o‘rta ta’limida tolerantlik muhitini yaratish hisoblanadi. Ayniqsa, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda bag‘rikenglik, toqatlilik, chidamlilik ko‘nikmalarini va o‘zgalarni boricha qabul qilish dunyoqarashini shakllantirish orqali butun dunyoda tolerantlikni rivojlantirish mumkin. Shu bois jahonda professional maktab ta’limiga tolerantlik ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi muhim ahamiyatga ega fundamental asos sifatida qarash dolzarblik kasb etmoqda.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida va xalqaro ilmiy tadqiqot markazlarida ta’limning ilk bosqichidan o‘quvchilarda tolerantlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik, profilaktik tizimiga doir kontseptual izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar tomonidan millatlararo tolerantlik madaniyatini amaliy ishlar orqali shakllantirishga doir rezolyutsiyalar va memorandumlar qabul qilinmoqda. Xususan, YuNESKO tomonidan 1995 yil 16 noyabr kuni «Tolerantlik tamoyillari Deklaratsiyasi»ning yaratilishi, BMT hamjamiyati tomonidan 2003 yilni «Dunyo miqyosida xalqaro tolerantlik yili» deya e’lon qilinishi va 16 noyabrni «Xalqaro tolerantlik kuni» sifatida nishonlanishi ham butun dunyoda tolerantlikni rivojlantirish, bag‘rikenglik tamoyillarini joriy etish zarurati ortib borayotganligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ham «bag‘rikenglik muhitini mustahkamlashga qaratilgan ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish»ga qaratilgan amaliy harakatlar va ular asosida olib borilayotgan keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari qo‘llab quvvatlanmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev tomonidan «30 iyul sanasini O‘zbekistonda «Xalqlar do‘stligi kuni» deb belgilash»ning taklif etilishi ham jamiyatimizda bag‘rikenglik, do‘stlik va tolerantlik muhitini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri ekanligini bildiradi. Shuningdek, maktab ta’limida o‘quvchilarning kreativ va tahliliy fikrlash salohiyatini shakllantirish uchun ularga sermazmun va tushunarli

darsliklar yaratish zarurati kelib chiqmoqda. Ayni shu maqsad yo‘lida kelgusi o‘quv yilidan boshlang‘ich sinflar uchun mo‘ljallangan davlat ta’lim standarti o‘quv dasturlari muqobilida zamonaviy xorijiy tajribadan o‘tkazilgan, ta’lim oluvchiga keragidan ortiq yuklama bermaydigan «Milliy o‘quv dasturi»ning, shu bilan birga «Tarbiya» fanining joriy etilishi ham tolerant ta’lim muhitini yaratish jarayonidagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Shu bilan birga, 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 74 maqsadi ustuvorligida “jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash”ning “ijtimoiy-pedagogik zaruriyatga asoslanib umumta’lim muassasasidagi ta’limda tolerantlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning tarbiya faniga doir zamonaviy metodikalarini ishlab chiqib, takomillashtirib borish, shuningdek, pedagogik faoliyatni optimallashtirishni taqozo etmoqda”.

Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tolerantlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini takomillashtirish, sifat o‘zgarishlarini namoyon qilish borasida jadal islohotlar olib borilmoqda. «Tarbiya» fanining joriy etilishi ham bu boradagi ishlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bois tarbiya fanini o‘qitish kontseptsiyasining mazmun-mohiyati, ustuvor vazifalarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich ishtirokida kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan 23 avgust 2019 yildagi yig‘ilish bayonining 24-bandida «Milliy g‘oya», «Odobnoma», «Dinlar tarixi», «Vatan tuyg‘usi» fanlarini birlashtirgan holda 2020-2021 o‘quv yilidan yagona «Tarbiya» fani joriy qilindi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan asos solingan yangi fan o‘quvchilarni hayotga tayyorlash, ularning yuksak bilimli va salohiyatli shaxs, kuchli dunyoqarashga hamda hayotiy pozitsiyagi ega inson bo‘lishiga qaratilgan maxsus strategiya hisoblanadi.

Davlatimizda o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun ishlab chiqilgan tarbiyya fani kontseptsiyasida ko‘rsatilishicha, fanni o‘qitish talablari bosqichlarining ishlab chiqilishida e’tibor qaratshi kerak bo‘lgan jihatlar:

- 1–4 sinf (A2), 9-sinf (A2+), 11-sinf (V1) bitiruvchisiga qo‘yiladigan minimal malaka talablari, o‘quv dasturlari, kompetentsiyalar hamda baholash mezonlari. Har bir bosqich tafakkur, ekologik, fuqaroviy, huquqiy, iqtisodiy, jismoniy, ma’naviy-axloqiy, estetik tarbiya turlarini o‘ziga qamrab olishi shart;
- har qaysi etapda o‘quvchi-bolalarni diniy, milliy, madaniy qadriyatlarni hurmat qilish hissida tarbiya qilish;
- ta’lim-tarbiyada maktabning oila bilan o‘zaro bog‘liqligi va hamkorligiga e’tibor qaratish, uni mustahkamlash, ota-onalarga, o‘zga madaniyat vakillariga bo‘lgan e’zozni umumbashariy tamoyillardan kelib chiqib rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash;
- bolalarning qonuniy manfaatlaridan kelib chiqqan holda ularning huquqlarini himoya qilish;
- milliy qadriyatlarga aylanib borayotgan “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” tamoyiliga asoslangan g‘oyalarni uzluksiz ta’lim tizimi ishtirokchilariga singdirib borish;
- shaxsni ijtimoiy hayotga jismoniy, ruhiy tomondan moslashtirish va turli muammoli holatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatish;
- yoshlarda Vatanga sodiq, fidoyi, faol fuqaroviy pozitsiyalarni paydo qilish;
- ko‘p asrlik jahon xalqlari dinlari tarixini tushuntirish bilan birga, biror bir dinda zo‘ravonlik, ekstremizm va terrorizm g‘oyalarini targ‘ib etilmaslikni singdirib borish;
- shaxs faoliyatini zamonaviy ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy, iqtisodiy institutlar bilan o‘zaro aloqadorligini kuchaytirish;
- axloqiy, ijtimoiy, ma’naviy muammosi bo‘lgan, tarbiyasida bo‘shliqlar aniqlangan, janjalkash oilalar bolalari, qonunbuzarlikka moyil yoki profilaktik ro‘yxatda turadigan yoshlar bilan yakka tartibda ishlash tizimini takomillashtirib borish .

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Aslida “boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida

tolerantlik ko‘nikmalarini rivojlantirish mazkur “Tarbiya” fani asosida olib borilishi, ushbu fan asoslarini to‘g‘ri yo‘naltirish, pedagogik jarayonni tushunarli qilib olib borish bilan rivojlantiriladi”. Tolerantlikni rivojlantirishda og‘zaki metodlar og‘zaki ishlash qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradi. Bu metodlar o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirishda o‘ziga xos sharoit yaratadi. Ularni, ya’ni og‘zaki metodlarni ham alohida ko‘rib chiqsak:

Tushuntirish. Kichik maktab o‘quvchilarida tolerantlikni rivojlantirishda tushuntirish metodining samaradorlik darajasi shundan iboratki, bunda o‘qituvchi materialni sodda tilda bayon qiladi, o‘quvchilar esa bilimlarni tayyor holda qabul qilib olishadi. O‘quv materialining bayoni aniq, tushunarli, qisqa bo‘lishi kerak. Tushuntirish metodidan ma’lumotlar tariqasidagi nazariy materiallar bilan tanishtirish, o‘quvchilarga o‘quv qurollarni ishlatish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlarni berishda foydalaniladi.

Boshlang‘ich ta’limda tolerantik bilan bog‘liq vaziyatlar, axloqiy jihatlarini og‘zaki tushuntirish usuli bilan bayon qilish ma’qul. Og‘zaki tushuntirish usulida zamonaviy axborot - texnologiyalari, maxsus gadjetlardan ham oqilona foydalanish mumkin.

Suhbat. Suhbatda kichik maktab o‘quvchilarining tolerantligini va bag‘rikenglik sifatlarini o‘qituvchilar o‘zining amaliy tajribasiga tayangan holda yo‘naltiruvchi savollar va ularga berilgan javoblar asosida aniq bir yondashuvni tanlab oladi va ulardagi muammolar bilan kurashish va xulqidagi buzilishlarni to‘g‘ri yo‘naltirish orqali tarbiyaviy maqsadga yetishadi.

Hikoya. O‘qituvchi bilimlarni tushuntirishni hikoya (ertak) ko‘rinishida amalga oshirishi mumkin. Bundan asosan tolerantlikka, bag‘rikenglik fazilatining tarixiy kelib chiqishi va tarixda namoyon bo‘lishi tarixiy xotirani rivojlantirish orqali maqsadga yetadi.

Tarbiya fani orqali o‘quvchilar tolerantlik ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ko‘rgazmali metodni amalga oshirish orqali bir tomondan o‘quvchilarning idrok etishlari, ikkinchi tomondan ularning tasavvurlariga tayanish samaradorligi oshiriladi.

Amaliy metodlar. “O‘quvchi-yoshlarning bilim, malaka, ko‘nikmalarini faol tarzda jadallik bilan egallashlariga amaliy va laboratoriya ishlarini o‘tkazish imkon beradi, bundan tashqari”, erkin va mustaqil hukm chiqara olish hamda xulosalar qilishga oid tadqiqotchilik ko‘nikmalarini, bola tasavvurini boyitadi va ularning bilim doiralarini kengaytiradi.

O‘quvchilarda tolerantlik ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ta’lim jarayonida quyidagilarga e’tibor berish kerak:

- muayyan bir mulohaza, urf-odatlarni o‘zlashtirishga majbur qilmaslik;
- jahon madaniyati, dunyo dinlari, qadriyatlariga nisbatan adolatli munosabatda bo‘lish;
- yon-atrofidagilar bilan o‘zaro ongli, kelishuvli, bir-birini anglashuvchanlik va tushunuvchanlikni ta’limning ilk bosqichlaridan o‘rgatib borish;
- ularda insonlar fikrini tinglay olish, muammolarni o‘zaro murosa bilan hal qilishga yo‘naltirish ko‘nikmasini tarkib toptirish;
- tolerantlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda tinchliksevarlik, etnik, siyosiy, diniy, konfessional va shaxslararo kelishmovchiliklarga nisbatan sabrlilik, teng huquqlilik kabilarning tub mohiyatini o‘rgatish.

O‘quv jarayoni (yangi bilim va tushunchalarni o‘rgatish), o‘yin darslari, sinf soatlari, davra suhbatlari, bahs-munozara, bayram kechalari, ko‘rik-tanlovlar, didaktik o‘yinlar, hikoyatlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijobiy fazilatlarni o‘stiradi. Yana savol-javob, namuna ko‘rsatib ergashtirish, rag‘batlantirish, ishontirish, talab qilish, o‘z-o‘zini boshqarishga o‘rgatish, tarbiyalovchi vaziyatlarni yaratish usullari, o‘quvchi faoliyati va muloqotining tahlili kabi usul va metodlardan ham ijobiy foydalanish mumkin. Shuni ta’kidlash kerakki, bu jarayon o‘qituvchining kasbiy mahoratiga hamda o‘quvchi unib-o‘sayotgan tevarak-muhitga chambarchas bog‘liq. Shu

maqsadda bu fazilatva xislatlarini rivojlantirish barobarida ta'lim oluvchilarning oila a'zolari, atrofdagi kishilar faol bo'lishlari ahamiyatli.

O'zaro ta'sirning yana bir turi o'qituvchi hamda o'quvchi hamkorligidan iborat. Bunday muloqotlar vositasida vujudga keladigan holat suhbatdoshlarning tolerantlik bo'yicha shaxsiy qarashlari qay bosqichda ekanligini bilish, uni kengaytirish imkoniyatlarini topishga turtki beradi. Bu holat pedagog uchun ham juda muhim. Ushbu hamkorlik natijasida o'quvchining tolerantlikka doir o'y-fikrlarini aniqlaydi va ularni yanada boyitish usul va yo'llarini izlab topadi. Chunki muloqot tarkibida hissiy-kognitiv holatlar bo'lib, ular jamoada yuqori darajadagi ijobiy munosabat, hamjihatlik hislari, hamkorlik, fikrlar doirasining kengligi, o'z shaxsiy imkoniyatlariga to'g'ri baho bera olish kabilar vositasida aks etadi.

Vasiylik, otaliqqa olish o'zaro ta'sir etishning ko'rinishlaridan biridir, uni tolerantlik tushunchasiga taqqoslash mumkin. Ya'ni vasiylik tabiiy me'yor bo'lib, bola shaxsiyatiga, or-nomusiga va g'ururiga tegmaydigan g'amxo'rlik va mehribonlikni ifodalaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tolerantlik va yuksak axloqiy fazilatlarni rivojlantirishda oila institutining o'rni yuqori hisoblanadi. Sababi insonning ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari avvalo oila bag'rida shakllanadi. Har bir insonning xarakateri, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan mezonlar va qarashlar – ezgulik, mehr-oqibat, olijanoblik, oriyat, ibo-hayo va andisha kabi aziz tushunchalarning poydevori ham, ijtimoiy munosabatlarning, ijtimoiy tajribaning asoslari ham oila muhitida qaror topadi.

Shunday ekan, oilaviy tarbiya masalasida jiddiy xatolikka yo'l qo'ymaslik uchun, avvalo, har qaysi oiladagi ma'naviy muhitni o'zaro hurmat, odob-axloq, insoniy munosabatlar asosiga qurish lozim bo'ladi. Buning uchun ota-onalarning o'zida yuksak axloqiylik sifatlari bilan birga turli fikrlar, g'oyalar, qarashlar va e'tiqodlarga, umuman olganda, plyuralizmga toqatli va chidamli bo'lish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, "Tarbiya" fani va interfaol metodlarga asoslanib boshlang'ich sinf o'quvchilarida tolerantlik ko'nikmalarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyasini amalda qo'llash juda samaralidir. Bu yangicha yondashuv asosida eski munosabatlarn tizimini, qadriyatlar va sharqona axloqiy munosabatlarni yangicha munosabatlar, qadriyatlar zamonida rivojlantirish, munosib qadr topishiga yo'naltirish hisoblanadi. Boshlang'ich ta'limdanoq o'quvchilarda tolerant munosabatlar ustuvorligini shakllantirishga urinish bo'lsa, bu jarayonning ahamiyatini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. –Toshkent: O'zbekiston, 23 sentyabr, 2020.
2. Vazirlar Mahkamasining «Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida «Tarbiya» fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida» 422-sonli Qarori // Xalq so'zi. –Toshkent, 2020 yil 7 iyul.
3. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Halq so'zi, 2020 yil 30 dekabr.
4. http://interonconf.net/index.php/isrc/article/view/80
5. https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/citationstylelanguage/get/acm-sig-proceedings?submissionId=1209&publicationId=1209
6. https://zenodo.org/record/6467886#.Y0Of03ZBzIU

Эгамбердиева Тургуной Ахмаджоновна
профессор Ферганского государственного университета,
доктор педагогических наук,
руководитель Центра исследований гендерного равенства ФарДУ,
nadira0505@mail.ru, +998913255742
Гафурова Нодира Равшановна
Ферганский государственный университет,
доктор философии в педагогических науках (PhD),
Эксперт-переводчик Центра исследований гендерного равенства ФарДУ,
nadira0505@mail.ru, +998939702131

ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ ТОЛЕРАНТНОСТИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация: В данной статье рассматриваются проблемы технологии развития умений толерантности учащихся начальных классов на основе предмета «Воспитание». Показаны методы и принципы обучения.

Ключевые слова: молодежное мировоззрение, система образования, знания, опыт и умения, социальный опыт и ценности, толерантная среда, культура толерантности, нормы толерантности.

Egamberdieva Turgunoy Akhmadjonovna
Professor of Fergana State University,
Doctor of Pedagogical Sciences,
Head of the Gender Equality Research Center at FarDU,
nadira0505@mail.ru, +998913255742
Gafurova Nodira Ravshanovna
Fergana State University,
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD),
Expert translator of the Gender Equality Research Center at FarDU,
nadira0505@mail.ru, +998939702131

PROBLEMS OF FORMING TOLERANCE SKILLS OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS

Annotation: In this article, the problems of the technology of developing the tolerance skills of elementary school students based on the science of "Education-upbringing" are discussed. Educational methods and principles are shown.

Key words: youth mindset, education system, knowledge, experience and skills, social experience and value, tolerant environment, culture of tolerance, norms of tolerance.